

TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHIDA "4+2" INNOVATSION O'QUV DASTURI ASOSIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH.

Tursunova Shahzoda Baxromovna

Namangan davlat pedagogika instituti

Intellektual fanlar va axborot texnologiyalari kafedrası

katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari, filiallarida, tayanch kafedralarida, o'quv markazlarida ishlab chiqarishning yetakchi mutaxassislari va professor-o'qituvchilar hamkorligida barcha amaliy mashg'ulotlarni bevosita ish joylarida o'tish kelajak mutaxassislari sifatli tayyorlash garovi hisoblanadi. Mazkur o'quv dasturining yutuqlaridan biri shuki, unda talaba o'quv jarayoni mobaynida 4 kun oliy ta'lim muassasida va 2 kun o'quv amaliyatini o'tash muassasalarida olgan amaliy ko'nikmalari asosida mustahkamlash haqida fikrlar olg'a surilgan

Kalit so'zlar: Texnika, texnologiya, innovatsiya, innovatsion o'quv dasturi, sinergetik integratsiya, kadr, mutaxassis, iste'molchi, ilmiy, o'quv, ishlab chiqarish markazlari

ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON THE "4+2" INNOVATIVE CURRICULUM IN THE FIELD OF TECHNOLOGICAL EDUCATION.

Tursunova Shahzoda Bakhramovna

Namangan State Pedagogical Institute

Department of Intellectual Sciences and Information Technologies

Senior Lecturer (PhD)

Annotation: This article highlights that the collaboration between leading specialists in production, professors, and lecturers in relevant departments, branches, core departments, and educational centers of higher educational institutions ensures the high-quality training of future specialists through direct practical sessions in

workplaces. One of the achievements of this educational program is that it proposes to strengthen the practical skills gained by students during the educational process, with 4 days spent in the higher education institution and 2 days spent in practical training institutions.

Keywords: Technology, innovation, innovative curriculum, synergetic integration, personnel, specialist, consumer, scientific, educational, production centers.

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ "4+2" В ОБЛАСТИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Турсунова Шахзода Бахрамовна

Наманганский государственный педагогический институт

Кафедра интеллектуальных наук и информационных технологий

Старший преподаватель (PhD)


Аннотация: В данной статье подчеркивается, что сотрудничество ведущих специалистов производства и профессорско-преподавательского состава в соответствующих кафедрах, филиалах, основных кафедрах и учебных центрах высших учебных заведений является залогом качественной подготовки будущих специалистов через непосредственное проведение практических занятий на рабочих местах. Одним из достижений данной образовательной программы является то, что она предлагает укрепить практические навыки студентов, приобретенные в ходе образовательного процесса, путем 4 дней, проведенных в высшем учебном заведении, и 2 дней, проведенных в учреждениях практической подготовки.

Ключевые слова: Техника, технология, инновации, инновационная учебная программа, синергетическая интеграция, кадры, специалист, потребитель, научный, образовательный, производственные центры.

Texnika va texnologiya rivojlangan hozirgi sharoitlarda faqatgina oliy ta'lim muassasalari kuchi bilan malakali mutaxassisni tayyorlash amalda mumkin emas.

Bitiruvchi bevosita o'quv ishlab chiqarish sharoitida muntazam holda amaliyot bilan shug'ullangandagina haqiqiy mutaxassis bo'lib yetishadi. Buning uchun kadrlar iste'molchisi bo'lgan ta'lim muassasalari tashabbusi bilan ularda tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari, filiallarida, tayanch kafedralarida, o'quv markazlarida o'quv ishlab chiqarishning yetakchi mutaxassislari va professor-o'qituvchilar hamkorligida barcha amaliy mashg'ulotlarni bevosita ish joylarida o'tish kelajak mutaxassislarini sifatli tayyorlash garovi hisoblanadi. Mazkur o'quv dasturining yutuqlaridan biri shuki, unda talaba o'quv jarayoni mobaynida 4 kun oliy ta'lim muassasida va 2 kun amaliyot o'tash uchun brogan ta'lim muassasasida olgan amaliy ko'nikmalari asosida mustahkamlab boradi.

“4+2” INNOVATION O'QUV DASTURI






“4+2” innovatsion o‘quv dasturining modeli

“4+2” innovatsion o‘quv dasturi asosidagi o‘quv-amaliy dasturning asosiy maqsadlari va vazifalari

- ta’lim sifatini oshirish, talabaning tanlangan faoliyat sohalari bo‘yicha nazariy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- ta’lim mazmunining o‘quv jarayonlari darajalariga mosligi;
- talabalarni amaliyot o‘tash ta’lim muassasalarida soha madaniyati hamda uning o‘ziga xosligi bilan tanishtirish; o‘qitish jarayonida ta’lim muassasalari sharoitlariga yaqin bo‘lgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan va laboratoriya, amaliy mashg‘ulot uchun foydalaniladigan jixozlardan foydalanish;

- Ta'lim muassasalaridan tajribali ustozlardan o'quv jarayonlariga mutaxassis sifatida jalb etish;
- talabalarning bilimini baholashda yangi baholash mezonlaridan foydalanish;
- turlicha innovatsion yo'nalishlar bo'yicha birgalikdagi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ishlanmalar tayyorlash;
- bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash va amaliyot negizini tashkil qilish;
- talabalarni maqsadli tayyorlashni, talabalar va o'qituvchilar uchun qo'shimcha stipendiyalar va grantlarni moliyalashtirish;
- bitiruvchining yangi ish jamoasida ijtimoiy moslashuvi va mehnatga ko'nikishi



bo'yicha xarajatlarini minimumga keltirish;


- ishlab chiqarish sohasida muvaffaqiyatga erishgan shaxslar tomonidan master-klasslar o'tkazish;


- talabalarining qobiliyatlarini aniqlash uchun turli tanlovlar o'tkazish.

“4+2” innovatsion o'quv dasturining asosiy tamoyili – bu oliy ta'lim muassasasi va amaliyot o'tash uchun shartnoma qilingan ta'lim muassasasi sifatli mutaxassislar tayyorlash jarayonida barchasi bir xil mas'uliyatni yuklaydi.

Amaliyot o'tash uchun shartnoma qilingan ta'lim muassasasining manfaatdorligi, avvalo- mutaxassis xodimlarni izlash va tanlash, tayyorlash, ularni qayta o'qitish va moslashuvga ko'zda tutilgan sarflarni kamaytirish, zarur mutaxassis xodimlarni tayyorlash imkoniyatidir. Bunda ish beruvchi mutaxassislarning kasbiy bilimlarni shakllantirishda, bitiruvchilarni ta'lim muassasalarining ish sharoitlariga ko'nikishi va “Ustoz-shogirdlik” tizimlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi. O'z navbatida talabalar nafaqat muayyan ta'lim muassasalari sharoitlari bilan tanishadilar va kasbiy faoliyat asoslarini o'zlashtiradilar, balki oliy ta'lim muassasalarini tamomlaganidan so'ng mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish imkoniga ega bo'ladilar.

Tayanch kafedralarni tashkil qilish. Respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta'lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, o'quv ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirishga doir qator dolzarb masalalar to'liq yechimini topmagan.





Mutaxassislikka qayta tayyorlash
va moslashtirish xarajatini
kamaytirish

Tashkilotdagi mavjud va yuzaga
kelishi mumkin bo'lgan
muammolarni bartaraf etish

“4+2” innovatsion o‘quv dasturini joriy qilishdan kutilayotgan natijalar

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Unga ko‘ra o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, uskunalar, apparatlar va asboblarni jihozlash rag‘batlantiriladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo‘llab-quvvatlanadi. Ilg‘or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib boriladi.

Ushbu dastur va oliy ta’lim va o‘quv ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirishga doir qarorlardan kelib chiqqan holda respublikamizdagi mavjud barcha ta’lim muassasalarida amaliy ishlar olib borilmoqda. Natijasi sifatida ishlab chiqarish korxonalarida talabalar amaliyotlarini tashkil qilinishida, diplom loyihalari

va kurs loyihalarining mavzularini ishlab chiqarish muammolarga yo‘naltirilishida, turli xo‘jalik shartnomalarini amalga oshirilishida hamda o‘quv-uslubiy va me‘yoriy hujjatlarni hamkorlikda tayyorlanishida ko‘rishimiz mumkin. Bajarilgan ishlar natijasini tahlil qilganimizda, aksariyat hamkorlik aloqalarining natijasi ta‘lim muassasasi manfaatlariga qaratilganligini sezilmoqda. Bu esa hamkorlikning bir tomonlama ekanligini, bunday hamkorlik uzviy davom etmasligidan dalolat bermoqda.

Hamkorlik aloqalarini bardavom bo‘lishida ikki tomonning ham manfaatlarini hisobga olgan holda, oldimizga qo‘ygan maqsadimizga erishishimiz, ya‘ni sinergetik integratsiyani amalga oshirishimiz zarur. Oliy ta‘lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyada biz nafaqat bo‘lajak muhandislarni tayyorlash, balki ikki tizimning manfaatlarini hisobga oluvchi birgalikdagi faoliyatni tushunamiz. Albatta, bunda integratsiyalashgan ta‘lim va tizimlararo sinergetik integratsiyaning uzviyligi hamda amalga oshirish mexanizmini ta‘minlamasdan samarali natijalarga erishib bo‘lmasligini alohida ta‘kidlab o‘tamiz. Sinergetik integratsiyaning uzviyligini ta‘minlashda oliy ta‘lim va ishlab chiqarishning tizimli ravishda o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish kerak. Ushbu integratsiya jarayonlari faoliyatning turli sohalarini qamrab oladi va turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Oliy ta‘lim va ishlab chiqarish sinergetik integratsiyasini amalga oshirish shakllari ko‘p bo‘lib, ulardan biri sifatida tayanch kafedrani misol qilishimiz mumkin.

Tayanch kafedra oliy ta‘lim va amaliyot o‘tash tashkilotlari o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Talabalar o‘z kasbini mazmun mohiyatini to‘liq anglashida, kasbiga sadoqat bilan yondashishida, bilim, malaka hamda ko‘nikma hosil bo‘lishida tayanch kafedraning ahamiyati katta. Hamkorlikda faoliyat olib borish bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishda V.A.Borodavkin, O.A.Grisova, A.A.Radionov, A.D.Rulevskiyalar hamkorlik aloqalarida yoshlarni ijtimoiy-psixologik qo‘llab quvvatlashda

A.D.Proskurin, G.V.Karpova, Yu.N.Nikulina kabi olimlar tomonidan maxsus tadqiqotlar olib borilgan. Ularning fikriga ko'ra korxonalar va o'quv muassasalarining sa'y-harakatlari bilan "qo'shma" tashkiliy tuzilmalarni - ilmiy, o'quv, ishlab chiqarish markazlari va majmualarini, o'quv va ishlab chiqarish guruhlarini yaratish kerak degan hulosalarni bildirishgan .

Tayanch kafedra ta'lim muassasasining tarkibiy bo'linmasi bo'lib, u hamkor korxona bilan birgalikda tashkil etilgan. Hamkorlar odatda ishlab chiqarish korxonalari, buyurtmachilar hisoblanadi. Tayanch kafedralarda mashg'ulotlar ta'lim muassasa o'qituvchilari va korxona mutaxassislari tomonidan olib boriladi.

Korxona xodimlari talabalar uchun amaliyotlarini etishlari hamda o'quv dasturlarini hamkorlikda tuzishi va barcha kurslardagi talabalarni ishlab chiqishda ishtirok etishlarini, maqsadli o'qitish uchun shartnomalar tuzishlari va talabalarining ilmiy-tadqiqot va diplom ishlarini nazorat qilishlari mumkin. Ta'lim muassasalari va hamkor tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning ushbu shakli chet elda juda keng tarqalgan. Ammo O'zbekistonda jumladan Namangan davlat pedagogika instituti bilan hamkorlikda ishlab chiqarish korxonalari tayanch kafedrani yaratish amaliyotini yaqin yillarda tashkil qila boshladi. Undan oldin esa kafedra filiallari sifatida tashkil qilingan edi.

Tayanch kafedraning asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilandi:

1. Kafedraga biriktirilgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish, shu jumladan:

- korxona faoliyatidaga aloqador konstruktorlik va texnologik tayyorgarlikni ta'minlovchi dars mashg'ulotlarini tashkillashtirish;

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini boshqarish;

- kurs va diplom loyihalarini boshqarish;

- laboratoriya ishlarini o'tkazish;

- zarurat bo'lganda tegishli mutaxassislik talabalari uchun umumiy muhandislik-iqtisodiy tayyorgarlik bo'yicha individual kurslarni o'qish;

- texnologik imkoniyatlardan foydalangan holda korxonada barcha turdagi talabalar amaliyotini tashkil etish va o'tkazish;

2. Korxona uchun zaruriy mutaxassislarni uzluksiz tayyorlash ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

3. Auditoriyalarni va qo'shma laboratoriyalarni maxsus jihozlar bilan jihozlash;

4. O'quv jarayonini ta'minlash, korxona yo'nalishi bo'yicha qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va talabalarni ilmiy ishlarga jalb qilish;

5. O'quv va uslubiy ishlarni olib borish, shu jumladan:

- mutaxassislar, bakalavrlar va magistrLAR tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qatnashish;

- kafedrada o'qitiladigan fanlar bo'yicha ishchi dasturlarni ishlab chiqish;

- kafedra fanlari bo'yicha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlash;

- yangi o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;

6. Ilmiy va o'quv salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan:

- korxonadagi mavjud adabiyotlar va manbalardan foydalanish;

- korxona xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, institutning ixtisoslashgan kafedralari professor-o'qituvchilarining stajirovkalari va malaka oshirishlari;

- yangi kurslarni ishlab chiqish va o'qish uchun korxona mutaxassislarni o'qishga jalb qilish;

7. Korxonaning buyurtmasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlarini olib borish, qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun ijodiy jamoalarni, shu jumladan talabalarni jalb qilish;

8. Korxonaning eksperimental, ishlab chiqarish va axborot bazasini jalb qilgan holda qo'shma ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish. O'qituvchilar, tadqiqotchilar

va talabalar uchun korxona jihozlaridan foydalanishni ta'minlash, shu jumladan vaqtincha foydalanish uchun;

9. Ilmiy-texnik yo'nalishlar bo'yicha qo'shma ilmiy-texnik tadbirlar (seminarlar, konferensiyalar) o'tkazish. Birgalikda ilmiy va uslubiy nashrlarni tashkil etish;

10. Boshqa oliygohlar, tashkilotlar va korxonalarning ixtisoslashgan kafedralari bilan hamkorlik qilish.

Talabalarni o'quv ishlab chiqarish amaliyoti asosan o'quv yilining oxirida tashkil etilgan bo'lib, bu vaqtda kollej, texnikum hamda kasb-xunar maktab talabalarining ham amaliyoti bir paytga to'g'ri kelar edi. Tabiiyki, ishlab chiqarish korxonalarida ish joylari ratsional tashkil etilganligini va cheklanganligini hisobga olsak, talabalarining aksariyat qismi mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy korxonada amaliyot o'tashga to'la jalb qilish imkoniyati yo'q edi. 2019-2020, 2020-2021, 2021-2022 o'quv yillarida o'quv ishlab chiqarish amaliyotini ikki tomonlama tasdiqlangan muvofiqlik jadvali asosida o'quv yili mobaynida o'tkazilish yo'lga qo'yildi. Natijada, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalarda va ta'lim muassasalarida talabalar to'la amaliyot o'tadilar. Aytish mumkinki, o'quv ishlab chiqarish amaliyoti davrida talabalar jarayon va sharoitiga tez moslashish, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Sinergetik integratsiyaning asosiy tamoyili sifatida oliy ta'lim muassasalariga va o'quv ishlab chiqarish korxonalariga sifatli mutaxassislar tayyorlash jarayonida har ikki tomonning manfaatlarini ko'zlagan holda, bir xil mas'uliyat yuklanishini alohida e'tirof etish lozim. Oliy ta'lim tizimidagi eng asosiy manfaatlaridan biri bu ishlab chiqarishning texnik bazasi va imkoniyatidan foydalanib, bo'lajak muhandislarni tayyorlash, ilmiy loyihalar ustida ishlash, amaliyotlarni o'tkazish va boshqalar. Amaliyot o'tayotgan tashkilot manfaatdorligi sifatida avvalo – mutaxassis hodimlarni izlash, tanlash va ularning bazasini yaratish, ularni qayta o'qitish va ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish maqsadida zarur mutaxassis hodimlar tayyorlashni aytishimiz mumkin. O'z navbatida bo'lajak

pedagoglar nafaqat muayyan o'quv jarayoni va sharoiti bilan tanishadilar, kasbiy faoliyat asoslarini o'zlashtiradilar, balki oliy ta'lim muassasasini tamomlaganidan so'ng mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish imkoniga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев С. Х., Турсунова Ш. Б. Технологик таълим сифатини оширишда бўлажак ўқитувчи касбий компетенциясининг ўрни //Ижодкор ўқитувчи. Тошкент. – 2021. – С. 347-355.
2. Казакбаева С. И., Турсунова Ш. Б., Курбонов А. А. КОМПЕТЕНЦИЯ УЧИТЕЛЯ ПРИ ПОВЫШЕНИИ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ //ББК 1 Е91. – 2018. – Т. 215.
3. Казакбаева С. И., Турсунова Ш. Б. СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА УЧИТЕЛЯ КАК СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ ИМИДЖА ПЕДАГОГА //ПРОРЫВНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ДВИГАТЕЛЬ НАУКИ. – 2019. – С. 205-207.
4. Tursunova S. B. T. S. B., G'aniyeva I. BO 'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O 'QITUVCHILARINI MAXSUS KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TALIM TEXNOLOGIYALARI // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Т. 1. – №. 12. – С. 531-534.
5. Tursunova, S. B. T. S. B., & Abdurazzaqova, G. (2024). TEXNOLOGIYA DARSLARI ORQALI OQUVCHILARDA TEXNIK FIKRLASH QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(12), 535-537.
6. Турсунова Ш. Б. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 824-830.
7. Турсунова, Ш. Б. (2021). Педагогик компетентлик ва уни самарали ривожлантириш. *Science and Education*, 2(3), 377-381.

8. Bakhromovna T. S. Characteristics of the Teacher of the Future Technological Education //JournalNX. – Т. 7. – №. 05. – С. 170-173.
9. Турсунова Ш., Сотиволдиева Г. ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИНИНГ ТАЪЛИМ ТАРБИЯ СИФАТИНИ ОШИРИШДАГИ КОМПЕТЕНЦИЯСИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 4. – №. 1. – С. 452-455.
10. Tursunova S. T. S. O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARI VA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYA FANINING O'RNI VA AHAMIYATI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Т. 1. – №. 12. – С. 219-222.
11. Турсунова Ш. Б. БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ //MATERIALLARI TO 'PLAMI. – 2022. – Т. 109.